

**BAQTRIYANING BRONZA DAVRI ARXELOGIYA
YODGORLIKLARINING JOYLASHUVI VA MODDIY MADANIYATI**

Bobohusenov Akmal

Buxoro Davlat Universiteti magistranti

Naimov Ismat

Buxoro Davlat Universiteti t.t.f.d (PHD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qadimgi Baqtrianing O'zbekiston va Tojikiston hududida joylashgan arxeologik manzilgohlari o'rganilish tarixi tahlil qilingan. Bu yodgorliklarning o'zbek davlatchilik tarixida tutgan o'rni beqiyos hisoblanadi. Buni yodgorliklarni o'rganish vatanimiz tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Kalit so'zlar: ShimoliyBaqtriya, Namozgoh, Sopolitepa, Balxob, Sharqiy Hisor, Dashtepa,i bodatxona, dashtli madaniyat, Surxon vohasi, manzilgohlar

Kirish. Qadimgi Baqtriya Shimoliy Afg'oniston, Janubiy O'zbekiston va Janubi-g'arbiy Tojikiston hududlaridan tashkil topgan. Janubiy va Shimoliy Baqtriya hududlaida bronza davrida o'troq dehqonchilikga asoslangan Dashtli-Sopollı madaniyatları, Janubi-g'arbiy Tojikistonda dasht bronzasiga xos Beshkent-Vaxsh madaniyatlar faoliyat yuritgan.

Baqtrianining bronza davri o'troq dehqonchilik madaniyati ildizlarini V.M.Masson Janubiy Turkmanistonning rivojlangan bronza davri arxeologik majmuasi migratsiyasi bilan bog'laydi. Ob-havoning quruqlashishi natijasida bu erda yuksak darajada rivojlangan ilk shahar turidagi Oltintepa, Nomozgoh madaniyat markazlari inqirozga uchragandan so'ng mil. avv. II ming yillikning boshlarida (mil. avv. 1800 yil) aholi o'z joylarini tashlab, Marg'iyona va Baqtriya hududlariga ko'chib kelib joylashganligi to'g'risidagi fikrni ilgari surgan edi.Bu xalqlar ko'chishlari

natijasida ular ko'chib kelgan hududlarda yangi manzilgohlar paydo bo'lganligini ko'ramiz

Qadimgi Baqtriyada hudud jihatdan ancha katta hududni o'z ichiga oladi. Natijada bu hududlarda O'ziga xos madaniyatlar ham paydo bo'lishga sabab bo'ladi. Bundan tashqari Baqtriya hududdagi aholi madaniyatiga boshqa hududlardagi madaniyatlar ham be vosita tasir ko'rsatganligini ko'ramiz. Qadimgi Baqtriya yodgorliklarini juda ko'plab olimlar o'rgangan va o'zlarining xulosalarini berishgan. Shunday olimlardan biri V.I.Sarianidi Murg'ob vohasining bronza davri madaniyatida Janubiy Anatoliya va Shimoliy Suriya hududlari bilan o'xshashligi to'g'risidagi fikrlarni ilgari surgan. Uning fikriga qaraganda mil. avv. IV ming yillikning oxirida O'rta yer dengizining shimoli-sharqiy qismidan Eron tog'lariga qadar cho'zilgan keng hududlarda yog'ingarchilik miqdori keskin pasayib, qurg'oqchil iqlim sharoiti qaror topadi. Bunday ekologik sharoit Anatoliya va Shimoliy Suriyada yashagan aholi hayotiga jiddiy ta'sir qilgan.

Dashli-Sopolli madaniyatları bronza davri manzilgohları ham Murg'ob vohasidagi kabi kichik daryo vohalaridan iborat mikrovohalardan tashkil topgan. Har ikkala hududda tog'lardan boshlanadigan kichik muvaqqat daryolar o'zanlarida joylashgan o'troq dehqonchilik qishloqlari alohida mikrovohani tashkil etgan. Mikrovohalalar cho'l, dasht va tog'lar orqali chegaralanib, alohida xo'jalik tuzilmasini tashkil etgan.

Janubiy Baqtriyada Davlatobod, Farruxobod, Dashtli va Nichkin hududiy dehqonchilik vohalari mavjud bo'lib, bu erga ko'chib kelgan aholi tabiiy sug'orishga qulay bo'lган joylarga o'rnashgan. Janubiy Baqtriyada arxeologik tadqiqot ishlarini olib borgan arxeolog olim V.I.Sarianidi janubi-g'arbiy Afg'onistonning so'nggi bronza davriga oid arxeologiya yodgorliklarini Tikar va Girday bosqichlarida faoliyat yuritganligini qayd etgan.

Davlatobod mikrovohasida joylashgan Tikar 1,2,3 Tikar 4 (Girdaytepa), Dashli mikrovohasidagi Dashtli 3, yodgorliklari yaxshi o'rganilgan. Davlatabod

mikrovohasidagi yodgorliklarning maydoni 0,4-1,0 ga. ni tashkil etadi. Tikar 4 yodgorligida (100x95 m.) mudofaa devori va to‘rt burchagida burjlari mavjud.

Dashli dehqonchilik vohasida bronza davriga oid 40 dan ortik yodgorliklar aniqlangan. Ular o‘troq dehqonchilik manzilgohlari va qabr inshootlaridan iborat. Nichkin va Farruxobod dehqonchilik vohalarida ham moddiy madaniyati Dashli madaniyatiga xos bo‘lgan bronza davri yodgorliklari borligi xususida ma’lumotlar keltirilgan, ammo ular arxeologik jihatdan yaxshi o‘rganilmagan.

Janubiy Baqtriyaning bronza davri manzilgohlari Afg‘onistonning shimoli-g‘arbiy hududida tarqalgan bo‘lib, ulardan eng yirigi Dashli 3 yodgorligi hisoblanadi. Manzilgoh ibodatxona va saroy-ibodatxona majmualaridan tashkil topgan. Ushbu yodgorlik o‘zida diniy boshqaruв tizimini aks ettirib, mazkur hududning markazi bo‘lgan.

Surxon vohasi issiq iqlimli o‘lka bo‘lib, shimol, shimoli-g‘arb va sharqda Hisor, Qo‘hitog‘, Bobotog‘, janubda Amudaryo bilan chegaralangan. Bu o‘lkada bronza davrida faoliyat yuritgan Sopolli madaniyati dehqon jamoasi sug‘orma dehqonchilik xo‘jaligini yuritish uchun qulay bo‘lgan kichik daryo atrofidagi erlarni o‘zlashtirgan. Birinchidan, bu o‘z davri dehqon jamoasining texnik imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan chorvachilik xo‘jaligini yuritish uchun tog‘ oldi hududlari yaylov hisoblangan.

A.Asqarov Sopolli madaniyatiga oid yodgorliklar tarqalgan hudularning uchta - SHerobod, Bandixon va SHo‘rchi mikrovohalarini ajratib ko‘rsatgan. A.S.Sagdullaev esa Muzrobod, SHerobod, Bandixon va Mirshodi mikrovohalariga ajratadi. E.V.Rtveledze Hisor mikrovohasi ham faoliyat yuritganligini e’tirof etgan.

Sopolli madaniyati xronologik jihatdan sopolli, jarqo‘ton, ko‘zali, molali va bo‘ston bosqichlariga ajratilgan. Ushbu madaniyatning barcha bosqichlarida o‘troq dehqon jamoasi xududiy jihatdan kengayib borgan.

Sopolli bosqichiga yodgorlik Ulanbuloqsoy hududida joylashgan Sopolli yodgorlik hisoblanadi. Keyinchalik Surxon vohasi bronza davrida tarqalgan

madaniyati mana shu yodgorlik nomi bilan atalgan. Umumiy maydoni 4 ga. ega bo‘lgan yodgorlik uch qator mudofaa devori bilan o‘rab olingan. A.A.Asqarov cho‘l o‘zlashtirish davrida tekslanib ketgan Kultepa va Kichiktepa yodgorliklarini qayd etib, ularning o‘rnida sopol parchalari, hayvon suyaklari va kul qatlamlarini aniqlagan.

Manzilgohda mudofaa devorlari mavjud bo‘lsada, Qadimgi Sharq mamlakatlari nomlariga xos me’moriy va ijtimoiy tabaqalanish hamda ixtisoslashgan ishlab chiqarish mavjud emas. O‘troq hayot kechirgan sopolli bosqichi aholisi Ulanbuloqsoy o‘zani atrofi hududida yashab, sug‘orma dehqonchilik, chorvachilik va o‘zlashtiruvchi xo‘jalik shakllari bilan shug‘ullanganlar.

Sopolli madaniyatining keyingi Jarqo‘ton bosqichida Ulanbuloqsoy aholisi Bo‘stonsoy hududiga kelib joylashadi. Bu erdagи Jarqo‘ton manzilgohining maydoni sal kam 100 gettardan iborat bo‘lib, qal’a va shahriston qismlaridan tashkil topgan. Manzilgohda mudofaa devori, ibodatxona, ixtisoslashgan ishlab chiqarish, turli tabaqa vakillariga tegishli uy-joy imoratlari mavjud. Bu jihatdan Jarqo‘ton qadimgi sharq (Mesopotamiya, Misr) mamlakatlarining nom turidagi ilk shahar markazlariga yaqin turadi. YOдgorlikda Jarqo‘ton bosqichining boshlarida o‘troq dehqonchilik manzilgohi shakllanib, keyinchalik ilk shahar markaziga aylangan. Bo‘stonsoy hududida Jarqo‘tondan bilan birga Bo‘ston 4 dan tashqari boshqa manzilgoh uchramaydi.

Qadimgi sharq mamlakatlarida Jarqo‘ton kabi yirik manzilgohlar qishloq tushunchasi doirasidan ancha keng bo‘lib, ularning atrofida maydoni 0,5-2,0 ga (Jarqo‘ton atrofida Bo‘ston 4; Nomozgohtepa atrofida SHo‘rtepa, Qo‘shtepa, Toychonaqtepa, Elentepa va boshqalar, SHahri So‘xta atrofida o‘nlab kichik manzilgohlar) keladigan manzilgohlar joylashgan.

Jarqo‘ton bosqichi davrida Ko‘hitang tog‘ oldi hududlarida buloq suvlariga asoslangan Tillabuloq va Arabuloq manzilgohlari shakllangan. Bu erda yashagan aholi chorvachilik va dehqonchilik xo‘jalik shakllari bilan kun kechirishgan. Jarqo‘ton

bosqichi davrida Sopolli madaniyati egallagan joylar maydoni kengayib, Sherobodning tog‘ oldi tog‘li hududlarini ishg‘ol etgan.

Sopolli madaniyatining mullali bosqichida o‘troq dehqon jamoasi Surxon vohasining sharqiy chegaralari, hatto Janubiy Tojikistonning shimoliy erlariga borib etgan. Professor A.S.Sagdullaev taklif qilgan Bandixon mikrovohasidagi yodgorliklar so‘nggi bronza va ilk temir davriga oid.

Sopolli madaniyatining mullali bosqichida o‘troq dehqon jamoalari hududi sharqqa tomon kengayib, Surxondaryoning Oltinsoy tumanidagi Mirshodi qishloq hududidagi yerlar ya’ni, Xalqajar daryo vohasi hududlari o‘zlashtiriladi. Bu yerda joylashgan Mullalitepa, Mullali qabri, Qiziljartepa, Qizilsuv va Bo‘yrachi 1 tepaliklarida ham tekshirish ishlari olib borilgan. Ushbu qadimgi qishloqlarning maydonlari 8-9 ga. dan iborat. Aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan.

Surxon vohasining sharqiy qismida Qizilsuv, Sangardak, Tupolang va Qoratog‘dayo kabi vohalariga ham mavjud. Mazkur daryo vohalaridan ilmiy nashrlarda chop etilmagan Sopolli madaniyatiga oid moddiy topilmalar aniqlangan bo‘lsada, o‘troq dehqonchilik qishloqlari o‘chramaydi. Bu erlarda ham sopolli madaniyatiga oid o‘troq deqon aholisi taqalganligi, tabiiy. Sopolli madaniyatiga oid manzilgohlarning aniqlanmaganligi sababli, ularni alohida xo‘jalik tumaniga ajratib bo‘lmaydi.

Dushanbe shahri yaqinidagi Kangurtut yodgorligidan Sopolli madaniyatiga oid moddiy ashyolar topib o‘rganilgan. Bu topilmalar bevosita Sapolli madaniyati an’analaring Janubiy Tojikistonning shimoliy erlariga yoyilganligidan dalolat beradi. Bu o‘z navbatida akademik E.V.Rtveladze Hisor dehqonchilik vohasi faoliyati to‘g‘risidagi fikri to‘g‘ri bo‘lib chiqadi.

Professor A.S.Sagdullaevning o‘z davrida keyingi davr Yozma manbalarni arxeologiya ma’lumotlar bilan bog‘lab, so‘nggi bronza davrida kichik dehqonchilik o‘lkalarida ilk davlatchilik belgilaringin paydo bo‘lganligini ta’kidlagan edi. Lekin T.Sh.Shirinov va Sh.B.Shaydullaevlarning tadqiqotlarida Jarqo‘ton yodgorligi shahar-

davlat sifatida e'tirof etilgan. Sopolli madaniyatining Jarqo'ton bosqichidan davlatchilik shakllanib, bu jarayon faqat Bo'stonsoy hududi bilan chegaralangan, xolos. Negaki, boshqa dehqonchilik vohalarida Jarqo'tonga o'xshagan ilk shahar shaklidagi manzilgohlar uchramaydi. Aks holda Sopolli madaniyatiga oid aholi hududiy davlatga yaqin tuzimiga ega bo'lgan bo'lishi mumkin.

O'tgan asrning 50 yillaridan boshlab B.A.Litvinskiy, A.M.Mandelshtam, L.T.Pyankova, N.M.Vinogradova, YU.G.Kutimov va boshqalar tomonidan Janubiy Tojikistonning Kofirnahr, Vaxsh va Panj daryo vohalari va Hisor vodiysi hududlarida mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmiga oid chorvador va o'troq dehqon jamoalariga tegishli qabr-qo'rg'onlar va manzilgohlarda keng ko'lamdag'i arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan. Ular yirik daryolarining irmoqlari va quyi oqimi hududlarida tarqalgan.

Nurek suv ombori hududida joylashgan Daxana, Tego'zak va Kangurtut manzilgohlari o'rganilgan. Bu yodgorliklardan aniqlangan moddiy topilmalar o'troq dehqonchilik madaniyati an'analaridan darak beradi. Bu bevosita Hisor madaniyatining o'troqlashuvi va Sopolli madaniyati ta'sirining kengayishi bilan bog'liq hodisadir.

Hisor vodiysining g'arbiy qismida joylashgan Tandiryo'l va Qumsoy qabristonlaridagi qabr-qo'rg'onlari alohida hududni tashkil etadi. Tadqiqotchi olimlar mazkur qabr-qo'rg'onlari Andronovo madaniyati xos aholi vakillariga oid.

Bishkent madaniyatiga oid ilk Tulxar qabrlarining ayrimlarida marhumlar dafn etilgan, boshqalarida esa mayit kuydirilib kuli ko'milgan. Qabrlarda kuzatuv buyumlari qo'lda yasalgan sopol idishlar, bronzadan yasalgan turli xil buyumlardan iborat. Ayrim qabrlarda kulolchilik charxida yasalgan chetdan keltirilgan sopol buyumlari mavjud. Ba'zi bir qabrlardan ochib o'rganilgan marhumlarning qiyofasi Andronovo madaniyatiga aholisi o'xhashligi aniqlangan. Vaxsh vohasi qabrlarda murdalarni kuydirish odati kuzatilmaydi. Topilmalardan qo'lda va charxda yasalgan sopollar ajralib turadi.

Janubiy Tojikiston hududida so‘nggi bronza davrida bir necha etnik guruhlarga xos madaniyatlar tarqaladi. Ular neolit davri mahalliy Hisor madaniyati sohiblarining o‘troqlashishi, g‘arbdan Sopolli madaniyatining mullali bosqichida hududiy kengayishi va shimoldan Andronovo madaniyatiga xos aholining ko‘chib kelishdan iborat.

Ushbu maqolada xulosa o‘rnida shuni takidlashimiz mumkinki, bronza davri Baqtriya hududida chuqur o‘rganilgan va o‘rganib kelinmoqda. Arxeologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki Baqtriya hududi O‘zbekiston hududida tashkil topgan ilk davlatlar va urbanizatsiya jarayonida muhum strategik hududlar sirasidan joy olganligini ko‘rshimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Аскаров А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Т.,Фан, 1977.
- 2.Сагдуллаев А.С. Культура Северной Бактрии в эпоху поздней бронзы и раннего железа: Автореф. дис. ...канд. ист. наук. Л., 1978.,
- 3.Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия-Тохаристан. Т., 1989, -C.
- 4.Асқаров.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи. – Тошкент “O’zbekiston” 2015.
- 5.Асқаров А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Т.,Фан, 1977.
- 6.Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари (Бактрия мисолида) Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. Т., 2009.
- 7.Виноградова Н.М. Юго-Западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. – М., 2004.

8. Сагдуллаев А.С. Оседлые области на юге Средней Азии в эпоху раннего железа (генезис культуры и социально экономическая динамика). Автореф. дис. ... док. ист. наук. - М.: 1989. - С. 40.

8. Темиров, Ф., & Умаров, Б. (2021). БУХОРО АМИРЛИКДА ОИЛА, НИКОҲ ВА МЕРОС ҲУҚУҚИНИНГ АМАЛДА ҚЎЛЛАНИШИ. *Scientific progress*, 2(1), 1201-1207.

9. UMEDOVICH, T. F., & UMIDA, X. (2022). PUBLISHING AND LIBRARY ACTIVITIES OF THE TURKESTAN JADIDS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(1), 26-31.

11. Темиров, Ф., & Исломов, Д. (2021). САДРИДДИН АЙНИЙ-ЗАМОНДОШИ ФИТРАТ ҲАҚИДА. *Scientific progress*, 2(1), 1349-1354.

12. Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). БУХОРО АМИРЛИГИДА ТАШҚИ СИЁСАТ ВА ДИПЛОМАТИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИДАН. *Scientific progress*, 2(1), 1276-1282.

13. Umedovich, T. F. (2022). SADRIDDIN AYNI-IN THE MEMOIRS OF HIS CONTEMPORARIES. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(6), 31-36.

14. Umarov, B. B. O. (2022). SCIENCE, EDUCATION AND CULTURE DURING THE RULE OF THE SOMANIANS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 46-49.

15. UMAROV, B. (2022). ARCHITECTURE OF BUKHARA IN THE ASHTARKHANID PERIOD. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(2), 94-100.

16. Umarov B. БУХОРО ВОҲАСИ ТУРАР-ЖОЙЛАРИ // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.

17. BAXTISHOD, U., & ULUG'BEK, Q. Y. (2022). MS ANDREEV-THE GREAT EASTERN SCIENTIST. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(3), 120-123.